



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/9

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№9/2023
sentyabr

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir
Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Tahririyat kengashi raisi:
Maxmudov Mels Hasanovich

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor
Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil
Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:
+998(90)744-00-22

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil
30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa doktori
(PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga
kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2023 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.
Buyurtma raqami 1.23
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop
etiladi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami
bilan O'zbekiston Ommaviy axborot
vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va
2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab har
oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz
tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar»
xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan
ko'chirib bosish tahririyatining roziligi
bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning
to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Хайитов Ш. А. Бухоролик уч нафар ҲАЗРАТИ ИНСОН тимсоли-уч китоб талқинида	7
Alimova G'. B. Dinning davlatdan ajratilishi tamoyili	9
Ахматов А. Бухорода фаолият юритган афғон адиблари	13
Iuldashev U. K. Litva-Rossiya munosabatlarida Kaliningrad muammosi	16
Ибрагимова М. Б. Илк мусулмон жамиятида дипломатик алоқалар (Маъорижун Нубувва асари асосида)	20
Мамадиев Б. Б. Шахрисабзнинг қадимий ҳаммомлари	28
Mustafoev J. A. Navoiy oblastida "Paxta ishi" qatag'onini amalga oshirilishi va uning fojeali oqibatlari	33
Nazarov Z. Namangan viloyatida davlat, uy muzeylarining vujudga kelishi va turizm rivojidadagi o'rni	37
Xadjamuratova M. X. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga oid qonunchilik asoslari	42
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Almatova M. Sh. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'rganishda motivatsiyani rivojlantirish	47
Ачилов Ш. Ш. Лексик компетенцияни такомиллаштириш бўйича педагогик технологиялар	53
Kaniyazova J. O. The image of old man in karakalpak, uzbek and kyrgyz prose	57
Matekov A. D. K.Smamutovning «Sizlarga aytib ketmoqchiman...» roman-essesining kompozitsiyasi	60
Mansurova F. Linguistic and pragmatic aspects of clarifying learners' brain dominance in successful english langugae acquisition	63
Mahmudova Kh. R. Analysis of the international experience of television programs on financial literacy	67
Rakhimova I. K. Implementation of worksheet strategy to foster research writing skill	72
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Abdullayev E. Z. O'quychilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari.	77
Adizova N. B. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining divergent fikrlashini rivojlanish orqali malakasini oshirish tizimi	81
Aminov A. Sh. Dasturiy ta'lim vositasi yordamida muhandislik kompyuter grafikasi fanining mustaqil ishlarini tashkil etish	86
Arustamyan Y. Y. The role of modern teaching technologies in the process of lecturing	89
Ashurov R. R. Boshlang'ich info'quvchilarini intellektual rivojlantirishning nazariy asoslari	93
Axadova K. S. Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy muammo sifatida	97
Azamkhonov O. A. Ways of development of speed and strength wrestlers aged 18-20	101
Atoeva M. F. Integratsiyalashgan ta'lim	106
Ахмаджонова Д. Д. Преподавание иностранных языков через онлайн-платформы. Всесторонний обзор и анализ.	109

Сиддиков З. Х. Содда математик моделларни куришда талабалар математик компетентлигини ривожлантириш методикаси	116
Djalolova S. X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirishda nazariy bilimlarning ahamiyati.	121
Джураева Д. Ш. Масала тушунчасини аниқлаштиришга доир турлича ёндашувлар	126
Евстафьева Л. Г. Применение проектного метода в обучении детей в дошкольном образовании	129
Ережепов И. Ю. Физическая культура – основа формирования ценностей здорового образа жизни	134
Fayzullayeva M. A. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish	138
Filippov O. A. Oliy ta'lim zamonaviy paradigmasining asosiy dominantlari	144
Ganiyeva L. M. O'zbekistonda estrada fortepiano pedagogikasini o'rta bosqichda o'rganishning uslubiy masalalari	152
Gulyamova N. A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida esse yozish orqali tanqidiy fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirish usuli.	157
Исмадияров Я. У. Особенности алгоритма создания совместных образовательных программ как инструмента интернационализации высшего образования	162
Kudratova A. I. Umumiy o'rta ta'limda funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	169
Kuralov B. A. Ta'limiy xakatonlarni o'rganishga oid tadqiqotlar	175
Курбанов Ш. Н. Оценка физического развития борцов различных специализаций на основе антропометрических и соматотипологических показателей.	178
Matjanov N. S. Kvant fizikasini o'qitishda konseptual metodik tizimni yaratishning ilmiy asoslari	12
Мадаминова Г. Г. Инглиз тилини чет тил сифатида ўқитишда Китобхонлар Клубини ташкиллаштиришнинг ижобий натижалари	188
Матназарова М. Б. Условия эффективности интернационализации содержания высшего образования	192
Нарзикулова Ф. Б. Роль педагогического сознания и педагогической позиции в формировании профессионального имиджа	195
Nasimova Z. I. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetetlikka oid ilmiy yondashuvlar	199
Низамова Ш. И. Таълим муассасалари бошқаришнинг педагогик-психологик омиллари	205
Obidov J. G'. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	210
Olloqova O'. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida she'riy matnlar orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirish	215
Otakulova D. H. Scaffolding efl students' writing through the writing process approach	221
Пирниязова М. К. Талабаларнинг уларда тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантирувчи витамин тажрибага эгалликларини ўрганиш	225
Pardayeva M. Y. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda fazoviy tushunchalarni shakllantirish	232
Раджабова Д. А. Теоретические принципы определения и формирования интеллектуального потенциала	236
Qaraxonova L. M. Loyihalash usuli o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida	239
Qodirov J. M. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarning o'quvchilarni tarbiyalash faoliyati	243
Quliyeva Sh. H. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda metodik ishlarning mazmuni	246
Қулматов З. З. Педагогик тадқиқотларни моделлаштириш ва ўтказишда математик-статистик методлар	249
Radjarova Z. T. Landshaft dizayni vositasida talabalarda kreativni rivojlantirish metodikasi	252
Raxmatova M. U. Effective methods for teaching abbreviations	255
Soliyev N. S. Bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	257
So'tkulova D. O. Pedagogical conditions for the development of speaking competence in students of non-philological higher educational institutions	260
Садуллоева М. Г. Формирование и развитие будущего учителя в процессе профессиональной подготовки в системе непрерывного педагогического образования	264
Tojiddinova L. Zamonaviy psixologiyaning pedagogikadagi amaliyotini o'rganish	267

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA METODIK ISHLARNING MAZMUNI
*Buxoro davlat universiteti, "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika" kafedrasida dotsenti,
Quliyeva Shahnoza Halimovna*

СОДЕРЖАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ПО ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ
*Бухарский государственный университет, доцент кафедры "Гелиофизика, возобновляемые источники энергии и электроника"
Кулиева Шахноза Халимовна*

CONTENTS OF METHODOLOGICAL WORK IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS
*Bukhara State University, Associate Professor of the Department of "Solar physics, renewable energy and electronics",
Kuliyeva Shahnoza Halimovna*

Annotatsiya: Ilmiy-metodik ishlarda ishtirok etish umumta'lim maktablaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi. Hozirgi kunda har bir mutaxassis jamiyat bilan hamnafas bo'lib, ilmfan sohasida sodir bo'layotgan innovatsionva axborot texnologiyalarni o'zlashtirib borsagina etuk mutaxassis bo'la oladi. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda metodik ishlarning mazmuni berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya fani bo'yicha metodik ishlar, ilmiy-metodik ishlar vazifalari, metodik ish shakllari, metodik ish metodlari, metodik ishlar mazmuni, metodik kengash, metodik ishlarni boshqarish tizimi.

Аннотация: Участие в научно-методической работе обязательно для всех руководителей, учителей, инженеров-педагогов общеобразовательных школ и является неотъемлемой частью их педагогической деятельности. Содержание, направленность и структура методической работы в общеобразовательных школах определяются положением о методической работе. В соответствии с этим положением проводится коллективная и индивидуальная методическая работа. В настоящее время каждый специалист может стать зрелым специалистом только в том случае, если он идет в ногу с обществом и осваивает инновационные и информационные технологии, происходящие в области науки. В данной статье представлено содержание методической работы по подготовке будущих учителей технологического образования в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: методическая работа в предмете о технологии, задачи научно-методической работы, формы методической работы, методы методической работы, содержание методической работы, методический совет, система управления методической работой.

Abstract: Participation in scientific and methodological work is mandatory for all leaders, teachers, engineer - teachers of general education schools and is an integral part of their pedagogical activity. The content, focus and structure of methodological work in secondary schools are determined by the regulation on methodological work. At present, each specialist can become a mature specialist only if he keeps pace with society and masters the innovative and information technologies taking place in the field of science. This article presents the content of the methodological work on the training of future teachers of technological education in higher educational institutions.

Key words: methodical work in the subject of technology, tasks of scientific and methodological work, forms of methodical work, methods of methodical work, content of methodical work, methodological advice, methodological work management system.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda metodik ishlarni o'rgatish juda katta ahamiyatga ega. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida keltirilgan "Texnologiya ta'limi metodikasi" fani mazmunida texnologiya faniga oid metodik ishlar mavzusi orqali mutaxassis umumiy o'rta ta'limda metodik ishlar mazmunini o'rganib oladilar. Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtda ham etuk pedagog bo'lib, kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- umumta'lim maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Metodik ishlarda ishtirok etish umumta'lim maktablaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi nizom bilan belgilanadi ya'ni metodik kengash umumta'lim muassasasining ta'lim, metodik va innovatsion faoliyatini ta'minlash yuzasidan metodik xizmatni amalga oshiradigan jamoaviy organ hisoblanadi. Metodik kengashning faoliyati jamoatchilik asosida tashkil etiladi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;

- metodik kengash.

Metodik ishlar shakli va mazmuni bo'yicha fan o'qituvchilari va xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdiridagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Metodik ishlar umumta'lim maktabining istiqboli va joriy ish rejalarida keltirilishi kerak. Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- kelajakdagi maqsadlarni rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);

- rejalarini ta'lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

- rejalarining ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;

- metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish;

- tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Har bir pedagog ishi rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.

2. Metodik-pedagogik mahoratni takomillashtirish.

3. O'qitilayotgan fan sohasidagi ilmiy-texnikaviy innovatsion bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Demak, texnologik ta'lim yo'nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalariga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar texnologiya ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish texnologiya fani darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Ta'lim muassasalarida metodik ishlarni boshqarishning asosiy ob'yekti pedagogik jamoa hisoblanadi. Umumta'lim maktabidagi metodik ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) metodik ishlarga umumiy rahbarlik qiladi. U metodik ishning rejasini tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchilar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning metodik ishlariga rahbarlik qiladi, yuqori organlar oldida o'zi rahbarlik qilayotgan maktabdagi metodik ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi. Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari maktabdagi metodik ishlarning, shuningdek fan uyushmalarida olib boriladigan metodik ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi. Sinf rahbarlari bilan olib boriladigan metodik ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari rahbarlik qiladi.

Jamoaviy metodik ishlardan eng muhimi fanlar bo'yicha tashkil etiladigan metod birlashmalardir. Texnologiya fani bo'yicha metod birlashmalarda ko'riladigan masalalar quyidagilardan iborat:

1) yangi o'quv dasturi, darslik, o'quv qo'llanmalarni o'rganish va metodik ishlarni amalga oshirish;
2) o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjat, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarning amaliy ishlarini tashkil etish va texnologiya fani o'quv xonasini jihozlash masalalarini o'rganish;

3) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini qo'llash, ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama qilish.

4) texnologiya fani o'qituvchisining ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribalari, o'quvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnatlarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlarni muhokama qilish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik amaliyot yakuniy bosqich hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislar "Texnologiya ta'limi metodikasi" fanida egallagan kasbiy kompetentligini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanidan mashg'ulotlarini tashkil qilishda namoyon qiladilar. Hozirgi kunda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan "4+2" tizimida olib borilayotgan islohotlar buning isbotidir. Ikki kun talaba maktabda pedagogik amaliyotni o'tash bilan birga texnologiya fanidan dars berayotgani ayni vaqtda metodik ishlarni yaxshi o'rganganidan dalolat beradi, natijada raqobatbardoshlik paydo bo'ladi. Kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni mukammal egallagan talaba ish bilan ta'minlanadi.

Demak, oliy ta'lim tizimida tayyorlanadigan texnologik ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislar nafaqat kasbiy bilimga balki metodik kompetentlikka ham ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Abduraxmonov SH., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.

2. Kuliyeva Shakhnoza, Karimova Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.

3. Kuliyeva SH Improving Teaching Aids In The Training Of Future Technology Teachers. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.

4. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Z.D. Rasulova, Sh.H. Quliyeva, A.R. Jo'rayev.- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 384 b.